


Yondosh mavzu:
mehmondo'stlik.

Ko'paytuvchi, ko'paytma.



1. Rasmda nechta anor va olma tasvirlangan? Ifoda tuzing. Ularda qanday umumiylik bor? Ular nimasi bilan farq qiladi?



Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasi

Ko'paytuvchilarning o'rinlari almashinishi bilan natija o'zgarmaydi.

$$a \cdot b = b \cdot a$$

2. Qulay usul bilan hisoblang. Ko'paytirishning o'rin almashtirish xossasidan foydalaning.

$$3 \cdot 60$$

$$2 \cdot 80$$

$$6 \cdot 10$$

$$70 \cdot 3$$

$$3 \cdot 40$$

3. Bir to'plamda 6 ta finjon bor. Bir qutida 5 ta finjonlar to'plami bor. Ikkita qutida jami nechta finjon bo'ladi?



4. Navro'z munosabati bilan mahallada bayram dasturxoni yozildi.



a) Bitta stolga nechta likopcha qo'yilgan? 5 ta stolga nechta likopcha qo'yilgan? $(2 \cdot 4) \cdot 5$ ifoda nimani anglatadi?

b) 5 ta stolga nechta yashil likopcha qo'yilgan? 5 ta stolga nechta ko'k likopcha qo'yilgan? $2 \cdot (4 \cdot 5)$ ifoda nimani anglatadi?



5. Namuna bo'yicha yozing va hisoblang.

Namuna: $(7 \cdot 2) \cdot 5 = 7 \cdot (2 \cdot 5) = 7 \cdot 10 = 70$

$(6 \cdot 2) \cdot 5$

$5 \cdot (8 \cdot 2)$

$(4 \cdot 5) \cdot 2$

$5 \cdot (2 \cdot 7)$




6. Har bir stolda:

4 likopcha yeryong'oq

2 likopcha bodom

4 likopcha yong'oq

? xandonpista



3 ta stol,

42 ta likopcha



7. Misollarni yeching.

$$2 \cdot 40$$

$$7 \cdot 10$$

$$(3 \cdot 5) \cdot 2$$

$$3 \cdot 50$$

$$2 \cdot 100$$

$$(4 \cdot 2) \cdot 5$$



8. Tenglamalar tuzing va ularni yeching.

a) x sonini 3 ga bo'lishdi va 9 ga ega bo'lishdi.

b) y sonini 9 ga ko'paytirishdi va 54 ga ega bo'lishdi.

d) z sonini 23 va 14 sonlari yig'indisiga qo'shishdi va 51 ga ega bo'lishdi.